

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

SHE’RIYATDA SODDA VA KENGAYGAN METAFORA

Dadaxon Muhammadiyev

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada she’riyatdagi sodda va kengaygan metaforalarning poetik holati ochib berilgan. Lingvistik matndan farqli ravishda badiiyatdagi metaforalar kengayishi, xarakter xususiyati, murakkab shakllari ko‘rsatilgan. Nazariy fikrlarga asos sifatida Eshqobil Shukur she’rlari tahlilga tortilgan.*

Kalit sho‘zlar: *she’r, tasvir, sodda metafora, kengaygan metafora, shakl, lingvistika, qisqargan o‘xshatish.*

Metaforaning nutqni obrazli qilishdagi ahamiyati juda katta. U qanchalik tabiiy yaralsa, shunchalik mag‘zi butun bo‘ladi. Adabiyotdagi metafora eng qadimiylaridan biridir. Ilk marotaba Arastu tomonidan ilmiy atama sifatida qo‘llangan metafora kundalik nutqqa shu qadar singib ketganki, bora-bora u anglatgan ko‘pgina tushunchalarning tom ma’nodagi nomi shart ham bo‘lmay qoldi. Bu – tabiiy jarayon. Olimlar metaforaning nutqdagi bo‘shliqni to‘ldirishini ta’kidlashadi.

She’rdagi metaforalar kamdan kam hollarda bitta so‘z yoki bitta jumladan iborat bo‘ladi. Aksariyat hollarda metaforalar murakkab shaklda keladi. Bir nechta obraz yoki metaforik holatlarning bitta metaforaga tizilishi uning ifodaviyiligini yana-da oshiradi.

R.Qo‘ng‘urov metaforalarni tuzilishiga ko‘ra ikki guruhga ajratadi:

1. Sodda metaforalar.
2. Kengaygan metaforalar¹.

Shuningdek, ushbu bo‘linish lingvistikada boshqa olimlar tomonidan ham xuddi shu ko‘rinishda guruhga ajratilgan. B.Umurqulov esa bu ikki turga quyidagicha ta’rif beradi: “Sodda metafora shaklan bir so‘zdan; kengaygan metafora birdan ortiq so‘zdan iborat”². Ammo “birdan ortiq so‘z” tushunchasini shunchaki so‘zlar jamlanmasi sifatida tushunmaslik lozim. Ya’ni metaforik ma’noni ifodalab kelayotgan birdan ortiq har qanday so‘z ham kengaygan metafora bo‘la olmaydi. “Kengaygan metaforalarning xarakterli xususiyati shundaki, so‘z metafora o‘zi bog‘lanib kelayotgan so‘z bilan mustahkam aloqaga kirishishi natijasida metaforik ma’no ifodalaydi”³. Kengaygan metaforada turli metaforik tasvirlar bir-biriga bog‘lanib turishi yoki bir-birini to‘ldirishi lozim bo‘ladi. She’rda u ba’zan jumlar, ba’zan satrlar, ba’zi hollarda esa bir nechta satrlarni qamrab olishi mumkin. Shu boisdan ba’zan bir nechta sodda metaforalarning birikishidan ham hosil bo‘ladi. Ayrim hollarda kichik o‘xshatish va metaforalar ham birikib kengaygan metaforani tashkil qiladi.

Eshqobil Shukurning “Umr” she’ri, bir qaraganda, umumiy bitta metaforaga qurilganga o‘xshaydi. Ammo tahlil jarayonida bir nechta metaforalarning bitta mazmuni ifodalashga qaratilganligi anglashiladi:

*Bir qo‘shiq keltirdi meni bu yerga,
Keltirdi bir uzuq novdaga qo‘shib.
Kech kuz gulga kirar yetti qobirg‘am,
Meni olib ketar yana bir qo‘shiq⁴.*

¹ Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 16.

² Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.64.

³ Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Тошкент: Фан, 1990. – Б.64.

⁴ Шукур Э. Яшил қушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 106.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

She’r bor-yo’g’i to’rt qatordan iborat. Undagi metaforalar dastlab sodda shaklda tahlil qilinsa, eng birinchi navbatda, “qo’shiq” so’zining “keltirdi” va “olib ketar” fe’llari orqali shaxslantirilgani, ya’ni metaforik holatga kelganini ko’ramiz. Ammo bu so’z she’rning ikki o’rnida ikki xil ma’noni anglatayotgani sababli undan oldingi aniqlovchi ham qo’shib, bir jumla sifatida qabul qilinadi. She’rdagi kengaygan metaforalarni sanab chiqamiz:

“*Bir qo’shiq*” – alla;

“*Uzuq novda*” – beshik;

“*Kech kuz*” – umrning oxiri;

“*Yana bir qo’shiq*” – janoza.

Bu yerda “*bir qo’shiq*” va “*yana bir qo’shiq*” jumllarini alohida keltirganimizning sababi shundaki, mazkur metaforalar shaklan bir xil bo’lsa-da, ifodalayotgan mazmuni ikki xildir. Endi she’rning umumiy mazmuniga keladigan bo’lsak, bir inson umrining to’rttagina satrda ifoda qilinishini ko’ramiz. Shu to’rt satrda sevinchlar, iztiroblar, mashaqqatlar, rohat-u farog’atlar jam bo’lgan hayotning aslida juda qisqa bir jarayon ekanligi tasvirlanadi.

She’rda so’zning leksik-semantik maydon hududi cheksiz. Juda keng, katta gaplarni siqib, bir so’z, bir jumla bilan ifoda qilish san’ati – bu. Metaforaning yana bir katta xususiyati aynan shundadir. Shoirning ruhi va tafakkuridagi jarayonlarning evrilishi evaziga ulug’ asarlar dunyoga keladi.

Eshqobil Shukurning “Nega yig’layapsiz...” deb boshlanadigan she’rida metafora nafaqat shakl jihatidan, balki mazmunan ham kengayganini ko’rishimiz mumkin. She’rni to’lig’icha keltiramiz:

Nega yig’layapsiz, qo’llarim?

Oyoqlarim, nega

Yulib tashlayapsiz tirnog’ingizni?

Bor yo’g’i uch ming yil yashadik hali

Tosh asrida, temir asrida.

Nega yig’layapsiz, qo’llarim,

Oyoqlarim nega yig’laysiz?

Hali manzil uzoq odam asriga⁵.

Ushbu she’rda yuqorida aytganimizdek, ham shakl, ham mazmun jihatdan kengaygan ikkita metafora bor:

1. “*Bor-yo’g’i uch ming yil yashadik hali*” – odamzod paydo bo’lganiga uch ming yil bo’ldi.

2. “*Hali manzil uzoq odam asriga*” – odam bekam-u ko’st yashaydigan davr hali kelmaydi. Ushbu satr haqidagi yana bir talqin shundan iboratki, shoir bu yerda o’z-o’ziga murojaat qilib, butun Odam farzandlarining azob-uqubati va bu uqubatlar davomli ekaniga, inson odamiylikning eng yuqori cho’qqisida bo’lishi kerak davrga urg’u beryapti. Ya’ni “odam bekam-u ko’st yashaydigan davr”ni jannat sog’inchi deb ham ifodalashimiz mumkin bo’ladi. Jannatda odamning kam-u ko’sti bo’lmasligi “odam asri” ishorasi bilan berilyapti. Bu – bir talqin. Har bir o’quvchi yoki tadqiqotchining talqini turlicha bo’lishi ham tabiiy.

Mana shu ikkita misol yuqorida kengaygan metaforaga berilgan ta’rifni badiiy jihatdan yana-da boyitadi va to’ldiradi. Ya’ni kengaygan metafora leksikologik tomondan ikki yoki undan ortiq so’z bilan ifodalanishi aytiladi. Badiiy tahlilda esa u faqatgina so’zlar soniga qarab belgilanmaydi. Uning mazmun, ifoda yo’sini, tasvir imkoniyatlarida ham kengayishi ko’rinadi.

⁵ Шукур Э. Яшил кушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 62.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Shoirning “Mamatrayim baxshi” she’ri sof metaforaga qurilganligi bilan alohida ajralib turadi. Shu bilan birga, she’ning har bir bandida kengaygan metaforalarni ko‘rishimiz mumkin. Garchi sarlavhada alohida ism keltirilgan bo‘lsa-da, she’r birgina o‘sha baxshining tilidan aytilmagan. Shu yurt, shu el baxshilarining, shu millat tilida kuylovchi, shu xalqning so‘zlarida dostonlar aytuvchi baxshi-yu oqin, mumtoz hofizlar tilidan aytilgan. Demak, sarlavhaning o‘zi ham metafora, yana ham aniqrog‘i, umumlashgan metafora.

Tilingga chipqonlar chiqqanida,

Tilingni chayonlar chaqqanida

Men tabib bo‘ldim, xalqim.

Men tabib...⁶

Kishining tiliga chipqon chiqishi uning gapira olmasligini bildiradi. Bu ibora xalq tilida ko‘p uchraydi. “Tilingga chipqon chiqqanmi? Gapirsang-chi!” mazmunidagi jumlar badiiy adabiyotda ham, so‘zlashuvda ham ko‘p ishlatiladi. Demak, aytishimiz joizki, xalqqa murojaat qila turib: “*Tilingga chipqonlar chiqqanida...*”, – deganda aslo jismoniy holat nazarda tutilmaydi. 130 yildan ortiq mustamlakada yashagan xalqning tili, urf-odatlar, an’analari toptalganda dalda kerak edi. Ona tiliga tahdidlar qilinib, o‘zga til el ichiga majburan tiqishtirilayotganda, kishilar o‘z tillarida gapirolmay qolganida, jim bo‘lganida, ya’ni “*tilga chipqon chiqqanida*” baxshilar jonajon tillarida dostonlar kuylashni to‘xtatmadilar. “*Tilingni chayonlar chaqqanida*” satri esa tilga tahdid holatini yana ham oydinlashtiradi. Baxshilar ana shu tahqirlangan, ojiz til uchun tabib bo‘ldilar. Tilning halok bo‘lmasligi, avlodlarga sog‘-omon yetib borishi uchun qo‘llaridan kelgani – dostonlar, termalar, qo‘shiqlar aytishni to‘xtatmadilar.

Uzolmay ortidan yoshli ko‘zingni,

So‘ng manzilga kuzatsang bitta so‘zingni

Men tobut bo‘ldim, xalqim.

Men tobut...

Tahdid qilingan, tahqirlangan til, ojiz so‘zlar bitta-bittadan unutilib borayotgan, to‘g‘rirog‘i, unutilishga mahkum qilinayotgan paytlar. Xalq esa unutilib borayotgan, o‘lib borayotgan har bitta so‘zni “*so‘ng manzilga kuzatayotganda*” baxshilar o‘sha so‘zlar uchun tobut bo‘ldilar. O‘sha so‘zlar eng so‘nggi marta baxshilarning tilidan yangradi.

Men so‘z deb yayradim, so‘z deb qaqqshadim,

Yurakni o‘rtaga qo‘yib yashadim.

Yuragim so‘zlarning dasturxonidir.

Yuragim dasturxon, xalqim.

“*Yurakni o‘rtaga qo‘yib*” metaforasi bu yerda “o‘limni tan olib” ma’nosida ishlatilyapti. “*So‘z deb yayragan*”, “*so‘z deb qaqqshagan*” baxshi baribir o‘z tilida dostonlar aytishni qo‘ymadi. Tahdidlarga to‘la jamiyatda “*yuragini o‘rtaga qo‘yib*” yashadi. O‘sha yurakka so‘zlarni yoyib qo‘ydi. (Aslida, bu gap ham metafora, kengaygan metafora). O‘sha yurak esa “*so‘zlarning dasturxon*” bo‘ldi.

Shoirning “Bu ko‘ngul ustina...” deb boshlanuvchi yana bir she’rini keltiramiz. E’tibor qaratilsa, ushbu she’rda ham kengaygan metaforalar yetarlicha ekanini ko‘rish mumkin:

Bu ko‘ngul ustina qorlar yog‘dilar,

Bog‘larin payhonlab o‘tdi bo‘ronlar.

Aqllar, fikrlar hayron boqdilar,

Uning qaytar vaqti bo‘ldi, yoronlar⁷.

⁶ Шукур Э. Яшил кушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 57.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Bir ko‘ngilni bitta umrga o‘xshatadigan bo‘lsak, mazkur she‘rning kechinmalarni tasvirlash jarayonini ham umrning tadrijiga mengzash mumkin. *“Bu ko‘ngul ustina qorlar yog‘dilar, / Bog‘larin payhonlab o‘tdi bo‘ronlar”*. Tadrij boshidan emas, so‘ngidan boshlanyapti. “Qorlar yoqqan”, “payhon bo‘lgan” ko‘ngilning nurli lahzalari ham bor. Faqat u lahzalar she‘rning davomida ochiladi. Satrlarda kengayib kelayotgan metafora “sob bo‘lgan ko‘ngil” mazmunini beryapti.

Bu ko‘ngil endi ko‘ngillik qilmaydi. Yig‘lamaydi, qayg‘urmaydi, sevinmaydi, o‘rtanmaydi. *“Uning qaytar vaqti bo‘ldi...”*

*Ko‘ngul kulbasini obod etgan gul,
Himmatingga qulluq, rahmingga qulluq.
Axir nimani ham ko‘rdi bu ko‘ngul,
Gohida sultonlik, gohida qullik...*

Ushbu bandda “gul” metaforasi boshqa metaforalarning kengayishiga, tasvirlar va holatlarning yana-da oydinlashishiga zamin hozirlagan.

“Ey, men sevgan qiz” degan murojaat go‘zal tarzda ifoda qilinyapti. Birinchi banddagi “sob bo‘lgan ko‘ngil” go‘zal kunlarni ham ko‘rgan: *“Qulluq! Bir sevgi tarixi bo‘lsa, shuncha bo‘lar-da. Sultonlikni ham ko‘rdik, qullikni ham...”*

*Bu ko‘ngul mehridan toshlar eridi,
Qo‘shiqqa aylandi nolayi zorlar.
Sulaymon sururi — safar qaridi,
Uning qaytar vaqti bo‘ldi, ag‘yorlar.*

Ko‘ngil bir qalb nimagaki qodir bo‘lsa, hammasini qildi. Toshlarini-da eritdi. Uning nolalari qo‘shiq'larga aylandi. Ammo safar qaridi... Birinchi bandda aytilganidek, *“uning qaytar vaqti bo‘ldi...”*

Xalq tilida: “Sulaymon o‘ldi – devlar qutuldi”, – degan gap bor. Bu yerda aytilayotgan “Sulaymon sururi” – ana shu gapga ishora. Endi devlar, ag‘yorlarga kun tegdi: *“Sulaymon o‘ldi, ag‘yorlar, sevining”*. Sururli damlar tugadi, *“uning qaytar vaqti bo‘ldi...”*

*Kimnidir qarg‘adi, kimnidir suydi,
Sumbula suviga to‘yingan ko‘ngul...
Bu ko‘ngul xokisor katta yo‘l edi,
O‘zdan boshqa hech kim yurmagan bir yo‘l.*

Sumbula suvi – kuzning boshlanganiga ishora. Bahoriy go‘zallik, ko‘klam nasimlarida yashnagan (“gohida sultonlik”), yozning qaqrog‘ini ko‘rgan (“gohida qullik”) ko‘ngil endi “sumbula suviga to‘yindi” – kuzga kirib kelyapti. Kuz – umrning so‘ngiga ishora. Endi fursat bityapti. Uning qaytar vaqti bo‘lyapti.

Bu ko‘ngil bir sevgini, bir orzuni, bir o‘rtanish, bir xokisorlikni ko‘rdi. Bu yo‘llardan faqat o‘zigina yurdi. Hech kim yurmagan yo‘l – bu.

Mazkur she‘rda so‘zning real jarayondagi asl mazmuni va uning metaforalangan holatda ifoda qilgan ma‘nosi o‘rtasidagi farqlar biroz mavhum ko‘rinadi. Chuqurroq e‘tibor qaratilmasa, ushbu farqlarni topish mushkul ham. Chunki she‘rda faqatgina so‘zlar emas, jumlar, satrlar metaforik holatni tashkil qilyapti. Ularni so‘zma-so‘z ajratish esa mazmunni toraytirishi yoki chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Muhimi, o‘quvchining she‘rdagi badiiy tasvirlarni idrok etishi, his qilishi, metafora yoki kengaytirilgan metafora sifatida bo‘lmasa ham, shoir aytayotgan ifodani to‘liq qabul qilishidir.

⁷ Шукур Э. Яшил кушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 78.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Aslini olganda, adabiyotning muddaosi ham shu: turli badiiy vositalarning qo‘llanilishidan maqsad asarni jimjimador qilish emas, o‘quvchining ongi, shuuri va ruhiyatiga yana-da teranroq kirib borishdir. Ushbu holat shoirning “O, meni yig‘latma” deb boshlanuvchi she‘rida ham o‘zi ifodasini topgan, deyishimiz mumkin. She‘rni to‘liq keltiramiz:

*O, meni yig‘latma...
Yomon tushlar ko‘rib, namozshomgulim,
meni yig‘latma.
Men poyi pataging bo‘lay, qayg‘ulim,
faqat yig‘latma.
Otingdan aylanay, og‘rimsa, gulim,
meni yig‘latma.
Uh tortsang, ustuni qular falakning,
yig‘latma.
Ko‘krak qafasiga yanglishdan xudo
Ayolning yuragin qo‘ygan erkakni,
yig‘latma⁸.*

Ushbu she‘rda ham yuqorida keltirilgan misollardagi kabi bir necha kengaygan metaforalarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “*Yomon tushlar ko‘rgan namozshomgul*” – “kuni yomon o‘tgan gul” metaforasi. Bu metaforaning “kuni yomon o‘tgan” mazmunida ifoda qilayotganimizning sababi: namozshomgulning kun qorayganda ochilib, kechasi bilan yashnab turadigan, quyosh chiqqanda esa yana o‘z holiga – ochilmagan holatiga qaytadigan gul ekanligidir. Bu gulning “*yomon tushlar ko‘rishi*” holati esa tushning odatiy tunda emas, kunduz kuni ko‘rganiga ishora. Undan keyingi kengaygan metaforalarni navbatma-navbat keltiramiz:

“*Men poyi pataging bo‘lay*” – “iltimos qilaman, yolvoraman”;
“*Otingdan aylanay*” – izhor (ismingini eshitsam, mamnun bo‘ladigan darajada sevaman);
“*Uh tortsang, ustuni qular falakning*” – “sen xomush bo‘lsang, butun dunyo, hatto falak ham bezovta”;
“*Ko‘krak qafasiga ayolning yuragi qo‘yilgan erkak*” – “ko‘ngli bo‘sh odam”.

Ko‘rinadiki, kengaygan metaforalarda bir so‘z emas, bir nechta so‘zlar birikib bitta metaforik holatni ifodalab keladi. Ushbu holatlarga esa metafora atamasiga nisbatan ishlatilgan “qisqargan o‘xshatish” ta‘rifi to‘g‘ri kelmasligi ham mumkin. Sababi shundaki, bunday holatlarda metaforaning asl ma‘nosini ba‘zan bir-ikkita, ba‘zan esa bir nechta so‘zlar, jumlar bilan ifodalashga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 152 б.
2. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 110 б.
3. Шукур Э. Яшил қушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – 128 б.
4. Султонсаидова С., Шарипова Ў. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Юрист-медиа маркази, 2019. – 112 б.

⁸ Шукур Э. Яшил қушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 6.